Bo'lajak pedagoglarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish texnologiyalari pedagogik muammo sifatida	720
Karribayeva Lobarxon Fayzulla qizi	
Ilmiy matnni o'qib tushunish va baholashda nostandart testlardan foydalanish bosqichlari.....	724
Komilova Lola Nasilloevna	
Dizatriyada tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni o'yin orqali rivojlantirish texnologiyalari.....	728
Mamatova Muzayyana Batirovna	
Turkiy bitiklarda nomlar tizimi va ularning semantik xususiyatlari	732
Munisa Shavkatova	
Kommunikativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni mediatorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	736
Muqimova Dilbarxon Xusanboyevna	
Sportda liderlik va jamoaviy ruhni shakllantirish metodlari	740
Nazarov Nursultan Safarbayevich	
Dars mashg'ulotlarini tashkil etishda loyihalashtirishning o'rni va ahamiyati.....	744
Normurodov Sharofiddin Muxiddinovich	
Ta'limda innovatsion kompetentlikning ahamiyati.....	748
Qobilova Aziza Tursunovna	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali bolalarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish	752
Salimova Aziza Sharipovna	
Xorijiy tillarni o'qitishda masofaviy ta'limning imkoniyatlari va muammolari	755
Sidiqova Ma'mura Adhamjonovna	
Til kompetentligini rivojlantirishda vizual materiallardan foydalanishning o'rni (boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish texnologiyasi misolida)	758
Zakirova Sohila Muhtoraliyevna, Sobirova Diloromxon Ma'rufjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi koxlear implantli bolalarni eshituv - nutqiy reabilitatsiyasi	761
Xamraeva Dildora Baxadirovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanishni kelib chiqish sababalari va korreksion ishlar	766
Xolboeva Ruxsora Egamberdiyevna	
Эффективность арт-терапии в обогащении словарного запаса у детей с ЗПР	770
Наган Олеся Талгатовна	
Autizmlı bolalar nutqini rivojlantirishda o'yinning ahamiyati.....	775
Nishonova Sevara	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchılarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy nazariy asoslari (XIX–XXI asrda).....	778
Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya	
Autizmlı bolalarda kommunikativ muloqotni shakllantirish texnologiyalari.....	781
Raxmonova Manzura Maxmudovna	
Talabalarda ma'naviy ongning rivojlanishidagi milliy dunyoqarash va tafakkur uslubining shakllanish omillari	785
Usarova Nigora Berdiyarovna	
PIRLSda qo'llaniladigan yuqori darajadagi tushunish ko'nikmalari (interpretatsiya, sintez) va ularni muloqotga o'rgatishda qo'llash	788
Choriyeva Valida Abdug'ani qizi, Shodiyev Faxriddin Teshayevich	
Prokrastinatsiya fenomenining retrospektiv talqini	795
M. L. Aripova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda millatlararo totuvlikni shakllantirishda badiiy adabiyotning o'rni.....	799
Xudoyberdiyeva Madina Abdulbaki qizi	



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI HAMDA PSIXIK JARAYONLAR KO'RSATKICHLARINING TAHLILI

Masharipova Miyassar Ichanovna

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti Sport faoliyati, pedagogika va
psixologiya fakulteti "Yakka kurash" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlantirish muammolarini hal etishning yangi yo'llarini izlash, birinchidan, ko'rsatilgan ziddiyatlarni bartaraf etish zarurati bilan, ikkinchidan esa, o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy tayyorgarligi va psixik rivojlanish jarayonini takomillashtirishning qonuniyatlari hamda metodologik va uslubiy shart-sharoitlarini o'rganish bilan bog'liq.

Kalit so'zlar: jismoniy mashqlar, jismoniy tarbiya, jismoniy sifatlar, kuch, tezlik, chidamlilik, chaqqonlik, egiluvchanlik, psixik jarayonlar, harakatli o'yinlar, diqqat, tafakkur, xotira, tasavvur.

Abstract: The search for new ways to solve the problems of physical development in preschool children is, first, associated with the need to eliminate the existing contradictions, and second, with studying the laws, methodological, and instructional conditions for improving the physical fitness and mental development of the younger generation.

Key words: physical exercises, physical education, physical qualities, strength, speed, endurance, agility, flexibility, mental processes, movement games, attention, thinking, memory, imagination.

Аннотация: Поиск новых путей решения проблем физического развития дошкольников связан, во-первых, с необходимостью устранения указанных противоречий, а во-вторых – с изучением закономерностей, методологических и методических условий совершенствования физической подготовленности и психического развития подрастающего поколения.

Ключевые слова: физические упражнения, физическое воспитание, физические качества, сила, скорость, выносливость, ловкость, гибкость, психические процессы, подвижные игры, внимание, мышление, память, воображение.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son¹ "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori hamda 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son "2017–2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasi, ilm-fan yutuqlari hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida ma'nan yetuk, intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash jarayoniga pedagogik va innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismonan va ruhan sog'lomlashtirish, ularning harakat faoliyatini rivojlantirish, chaqqonlik, kuch, jasorat kabi hayotiy ehtiyojlar asosida harakatga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishning samarali vositalarini izlab topish dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu muammoning yechimi, bizningcha, yaxlit tarbiya jarayonini, bolaning har tomonlama – jismoniy va shaxsiy – rivojini ta'minlovchi ijtimoiy-pedagogik sharoitlar birligini yaratishda namoyon bo'ladi. Bunda bolalarning harakat faoliyatini tashkil etishning o'yin shakllari eng samarali vosita sifatida e'tirof etiladi.

1 <https://www.lex.uz/docs>



Tadqiqot maqsadi: Harakatli o'yinlardan maqsadli foydalanish asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash jarayonini maqbullashtirishning uslubiy yo'llarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari: Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlar va psixik jarayonlarni rivojlantirishning yoshga bog'liq xususiyatlari hamda dinamikasini aniqlash. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy va psixik tayyorgarligi ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hamda o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy va psixik tayyorligini maqsadli rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqish va tajriba asosida asoslash.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kuch imkoniyatlarini tekshirish. Uch yoshli bolalar orasida o'tkazilgan dastlabki tadqiqotlarda o'g'il bolalarda o'ng va chap panjaning rivojlanishida sezilarli farqlar kuzatildi. Tadqiqot natijalari o'ng qo'lning ustunligi ishonchli ekanligini ko'rsatdi ($t = 3,29$). Shu bilan birga, qizlarda o'ng va chap panjalar kuchi o'rtasida sezilarli tafovut kuzatilmadi. 25 o'quv kunidan so'ng o'tkazilgan yakuniy tadqiqotlarda esa o'g'il bolalarda ham, qizlarda ham o'ng va chap qo'l panjalari hamda bilaklardagi kuch darajasi ortgani aniqlandi.

1-jadval: 3 yoshli bolalar jismoniy sifatlarining rivojlanish ko'rsatkichlari

Testlar	Jinsi	Nazorat guruhi				Tajriba guruhi				
		M	$\pm m$		C, %	M	$\pm m$		C, %	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
KUCH										
Panja kuchi (o'ng) kg	O'	3,6	0,2	0,85	20,7	4,2	0,8	0,8	16,7	1,9 $R < 0,05$
	Q	2,64	0,27	0,67	30,5	3,2	0,19	0,8	22,0	1,7 $R < 0,05$
Panja kuchi (chap) kg	O'	2,72	0,19	0,80	29,0	3,6	0,14	0,6	16,45	3,5 $R < 0,05$
	Q	2,36	0,28	0,72	32,6	2,61	0,2	0,72	2,46	0,71 $R > 0,05$
Uzunlikka sakrash m.	Q	0,78	0,08	0,19	18,2	0,72	0,09	0,12	18,9	1,3 $R < 0,05$
10 sek.da oyoqlarni ko'tarish	O'	7,4	0,2	0,9	15,2	9,2	0,33	1,4	14,25	4,8 $R < 0,05$
	Q	7,2	0,3	1,18	19,3	7,6	0,26	0,97	10,2	0,75 $R < 0,05$
CHIDAMLILIK										
Yugurish, 60 m., s.	O'	23,9	0,31	1,18	3,9	21,1	0,28	1,6	4,8	6,9 $R < 0,05$
	Q	21,7	0,32	4,96	20,8	20,2	0,3	1,6	5,83	3,02 $R < 0,05$
Yugurish, 120 m., s	O'	45,1	1,26	5,83	13,0	42,0	0,6	2,8	6,2	1,38 $R < 0,05$
	Q	43,9	0,96	6,19	13,6	41,1	0,8	2,4	5,85	1,97 $R < 0,05$
TEZLIK										
Yugurish 10 m., s.	O'	3,43	0,18	0,52	12,0	3,21	0,12	0,37	9,9	1,83 $R < 0,05$
	Q	3,59	0,10	0,38	11,2	3,3	0,20	0,3	11,3	2,1 $R > 0,05$
10 s. davomida qo'l barmoqlarini bukish va yozish	Q	5,23	0,12	0,42	8,1	4,85	0,18	0,3	6,3	3,3 $R < 0,05$
10 s davomida o'tirib-turish	O'	9,98	0,28	0,97	9,6	8,60	0,05	0,4	2,8	4,4 $R < 0,05$
	Q	1,0	0,42	1,23	12,8	11,4	0,3	1,2	12,6	0,9 $R > 0,05$



1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
Turgan joyda 10 marta sakrash, s	Q	4,72	0,18	0,36	9,1	4,16	0,06	0,4	6,8	3,75 R<0,05
CHAQQONLIK										
To'pni nishonga otish (marta)	O'	0,8	0,01	0,1	9,6	1,6	0,02	0,17	8,8	9,2 R<0,05
	Q	0,95	0,2	0,6	79,8	1,8	0,2	1,4	67,4	2,56 R<0,05
Qo'llarni yon tomonga yozish (gr.)	O'	5,94	0,36	1,8	21,2	2,95	0,08	0,38	16,9	8,6 R<0,05
	Q	6,46	0,8	5,8	82,5	2,25	0,8	0,94	91,2	10,2 R<0,05
Majmual muvozanat mashqlari MMM (ball)	O'	2,40	0,08	0,3	17,9	3,98	0,1	0,35	5,4	14,6 R<0,05
	Q	2,7	0,4	0,7	13,9	4,8	0,2	0,93	15,8	16,5 R<0,05
EGILUVCHANLIK										
Ko'pri, Sm	O'	48,6	3,9	16,8	40,6	45,6	1,0	4,0	11,5	0,8 R>0,05
	Q	46,6	1,9	6,8	1,49	41,8	1,7	5,1	12,4	1,9 R<0,05
Engashish, Sm	O'	2,04	0,5	1,7	69,0	3,8	0,8	1,6	51,2	2,7 R<0,05
	Q	2,9	0,7	2,0	54,4	3,5	0,6	1,3	38,9	1,5 R>0,05

Yakuniy nazorat sinovlari natijalari shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhi o'g'il bolalari kuch tayyorgarligining barcha testlari bo'yicha nazorat guruhi tengdoshlaridan ancha ustun natijalar ko'rsatgan. Ayni vaqtda qizlar ham pedagogik tajriba natijasida nazorat guruhidagi tengdoshlariga nisbatan to'rtta testning ikkitasi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lishgan. Barcha hollarda kuchning rivojlanish darajasi bo'yicha tajriba guruhi o'g'il bolalari o'z tengi qizlardan ustun natijalar qayd etgan.

To'rt yoshli bolalar. Bu yosh davrida pedagogik tajriba nazorat guruhlariga nisbatan o'g'il bolalarda ham, qizlarda ham kuch imkoniyatlarining sezilarli o'sishiga olib kelgan. Masalan, nazorat guruhiga nisbatan tajriba guruhi o'g'il bolalarining o'ng panjasi kuchining mutlaq qiymati 38,5 %, chap panjasida esa 44,2 % ni tashkil etgan. Joyidan turib uzunlikka sakrash bo'yicha tajriba guruhi o'g'il bolalari nazorat guruhidagi tengdoshlariga nisbatan 33 % ga, ko'ptokchani uloqtirish bo'yicha esa 60 % ga yuqori natija ko'rsatgan. Tajriba guruhi qizlarining o'ng panjasi kuchi nazorat guruhidagi tengdoshlarinikiga nisbatan 4,7 % ga kamroq, chap panjasida esa 13 % ga past bo'lgan. Biroq bu o'zgarishlar aniq tendensiyani ifodalamaydi.

2-jadval: 4 yoshli bolalar jismoniy sifatlarining rivojlanish ko'rsatkichlari

Testlar	Jinsi	Nazorat guruhi				Tajriba guruhi				
		M	±m		C, %	M	±m		C, %	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
KUCH										
Panja din. (o'ng), kg	O'	4,98	0,39	1,68	33,0	5,82	0,26	0,94	20,6	1,2 R>0,05
	Q	4,70	0,29	1,16	29,9	4,50	0,21	0,91	23,0	0,67 R>0,05
Panja din. (chap), kg	O'	3,96	0,40	1,2	33,7	4,4	0,38	1,0	24,5	1,8 R>0,05
Uzunlikka sakrash, m.	O'	1,05	0,22	0,35	27,8	1,13	0,14	0,32	21,0	3,0 R<0,05
	Q	0,8	0,05	0,18	19,1	0,93	0,04	0,14	16,3	3,3 R<0,05



1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
To'pni uloqtirish, m	O'	1,50	0,15	0,38	16,95	2,52	0,19	0,43	13,6	3,75 R<0,05
	Q	2,25	0,14	0,42	15,2	2,42	0,17	0,32	14,7	1,8 R<0,05
10 s.da oyoqlarni ko'tarish	Q	7,8	0,29	1,58	22,7	9,2	0,20	1,58	15,3	3,28 R<0,05
CHIDAMLILIK										
Yugurish, 70m, s	O'	20,7	0,66	2,75	11,6	20,4	0,48	2,0	8,3	1,2 R>0,05
	Q	20,2	0,54	1,48	7,6	18,2	0,38	2,3	7,7	3,1 R<0,05
Yugurish, 120m, s	O'	39,0	1,02	2,89	8,6	32,5	0,73	1,8	6,1	6,2 R<0,05
	Q	39,6	0,41	2,16	9,2	36,2	0,47	1,9	5,8	3,7 R<0,05
TEZKORLIK										
Joyidan yugurish, 70m, s	O'	2,22	0,13	0,34	9,7	2,71	0,19	0,5	9,6	1,9 R>0,05
	Q	3,27	0,12	0,40	1,09	2,9	0,11	0,5	13,6	4,1 R<0,05
Qo'l barmoqlarini bukib- yozish, 10 marta, s	O'	12,16	0,29	0,87	8,8	11,5	0,17	0,6	7,2	2,0 R<0,05
O'tirib-turish, 10 marta	O'	8,43	0,18	0,69	7,9	7,5	0,16	0,5	7,4	0,5 R<0,05
	Q	10,08	0,18	0,57	7,7	9,7	0,09	0,7	6,8	2,9 R<0,05
Mokisimon yugurish, 10x3,s	O'	12,10	0,32	0,86	8,16	11,4	0,33	0,6	5,8	3,0 R<0,05
	Q	13,02	0,19	0,85	8,4	12,1	0,08	0,6	5,7	3,8 R<0,05
CHAQQONLIK										
To'pni nishonga otish (marta)	O'	1,54	0,32	1,03	59,9	2,1	0,3	1,4	65,5	1,3 R>0,05
	Q	1,26	0,2	0,9	71,6	2,0	0,2	1,3	50,2	3,9 R>0,05
Qo'lni ikki tomonga yozish, gr.	O'	9,04	2,1	6,26	76,7	4,0	0,6	3,6	73,2	2,0 RO,05
	Q	3,6	0,7	1,8	59,5	2,2	0,5	1,8	52,9	2,7 R<0,05
MMM, ballar	O'	5,18	0,4	0,35	19,6	5,6	0,3	1,5	19,6	1,1 R>0,05
	Q	7,8	0,5	2,1	19,7	7,6	1,8	0,9	10,6	0,9 R>0,05
EGILUVCHANLIK										
Ko'prikcha, Sm	O'	51,9	1,9	6,4	15,5	43,1	1,8	5,1	12,6	2,8 R<0,05
	Q	47,1	2,0	7,2	18,0	43,5	0,9	4,6	12,4	1,7 R>0,05
Engashish, Sm	O'	3,12	0,3	1,0	37,9	5,21	1D	2,9	47,4	3,3 R<0,05
	Q	3,6	0,5	2,2	57,3	4,3	0,4	1,7	28,7	0,9 R>0,05



Shu bilan birga, qizlarning nazorat guruhida variant koeffitsientining pasayishi pedagogik tajriba natijasida kuch imkoniyatlarining rivojida ayrim ijobiy yo'nalishlar shakllanganini ko'rsatadi. To'pni uzoqlikka uloqtirish mashqida ham ijobiy natijalar qayd etilgan. 25 tajriba o'quv kunidan so'ng to'rt yoshli qizlar bu mashqda nazorat guruhidagi tengdoshlaridan 7,9 % ga, chalgancha yotgan holda oyoqlarni ko'tarish (10 soniyada ko'tarishlar soni) mashqida esa 25 % ga yuqori natijalar ko'rsatgan ($t = 3,46$). Shunday qilib, olingan natijalar tahlili pedagogik tajriba davomida kuzatilgan o'zgarishlarning bir xillikda emasligini ko'rsatadi. 4 yoshli bolalarda ayrim mushak guruhlarining ontogenez bosqichiga qarab turlicha rivojlanishi – kuch rivojlanishining geteroxon xususiyati – tabiiy hol sanaladi. Shu sababli ayrim adekvat bo'lmagan ko'rsatkichlar tajriba noto'g'ri rejalashtirilgan degan xulosani bildirmaydi.

Besh yoshli bolalar. Pedagogik tajriba natijalariga ko'ra, tajriba guruhi o'g'il va qiz bolalarning kuch imkoniyatlari nazorat guruhi bolalarinikidan yuqori bo'lgan. Tajriba guruhidagi 5 yoshli bolalarning o'ng panjasi kuchi tajriba mobaynida nazorat guruhi bilan taqqoslaganda 22,6 % ga yuqori chiqdi.

3-jadval: 5 yoshli bolalar jismoniy sifatlarining rivojlanish ko'rsatkichlari

Testlar	Jinsi	Nazorat guruhi				Tajriba guruhi				
		M	$\pm m$		C, %	M	$\pm m$		C, %	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
KUCH										
Panja din. (o'ng), kg	O'	5,80	0,16	1,90	31,6	7,2	0,19	0,98	15,3	3,92 $R < 0,05$
	Q	4,80	0,17	1,63	21,8	6,2	0,35	0,78	10,9	5,70 $R > 0,05$
Panja din. (chap), kg	O'	5,20	0,2	1,92	69,3	5,75	0,9	1,13	20,7	1,06 $R > 0,05$
	Q	4,4	0,12	1,49	33,8	5,3	0,23	1,0	26,8	2,42 $R < 0,05$
Uzunlikka sakrash, m.	O'	1,25	0,09	0,23	20,6	1,35	0,22	0,59	59,7	0,17 $R > 0,05$
	Q	1,05	0,06	0,09	8,1	1,06	0,08	0,17	11,4	0,13 $R > 0,05$
To'pni uloqtirish, m	O'	2,35	0,13	0,42	17,4	2,70	0,14	0,44	16,6	1,82 $P > 0,05$
	Q	2,30	0,09	0,37	19,0	3,05	0,31	0,89	36,2	2,7 $R < 0,05$
10 s.da oyoqlarni ko'tarish	Q	7,73	0,25	0,63	9,7	8,52	0,18	0,42	7,3	3,98 $R < 0,05$
CHIDAMLILIK										
Yugurish, 90m, s	O'	24,2	0,82	3,03	13,9	21,1	0,64	1,6	8,5	3,05 $P < 0,05$
	Q	27,62	0,63	2,97	12,5	24,58	0,71	2,2	6,6	2,36 $R < 0,05$
Yugurish, 120m, s	O'	34,0	1,46	4,2	10,8	33,4	0,96	2,9	6,8	0,52 $R > 0,05$
	Q	35,28	0,5	2,32	6,7	34,0	0,36	2,0	4,8	2,96 $R < 0,05$
TEZKORLIK										
Joyidan yugurish, 10m, s	O'	2,48	0,12	0,42	15,1	2,38	0,08	0,3	8,3	1,26 $R > 0,05$
	Q	2,65	0,11	0,28	11,6	2,44	0,04	0,3	9,5	0,19 $R > 0,05$
Mokisimon yugurish 10mx.s	O'	11,50	0,19	0,73	6,9	11,06	0,09	0,4	5,0	1,93 $R > 0,05$
	Q	12,36	0,31	0,67	8,2	11,02	0,19	0,7	6,1	2,37 $R < 0,05$



1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
CHAQQONLIK										
To'pni nishonga otish (marta)	O'	1,96	0,19	1,02	52,5	3,2	0,4	1,7	32,8	4,2 P<0,05
	Q	1,36	0,26	0,9	71,6	2,55	0,9	1,5	50,2	2,84 R<0,05
Qo'lni yon tomonga yozish, gr.	O'	3,6	0,62	1,93	69,6	1,8	0,2	0,6	51,1	2,97 R<0,05
	Q	3,2	0,9	3,1	88,4	1,6	0,4	1,3	63,9	2,59 R<0,05
MMM, ballar	O'	6,95	0,38	1,54	20,3	7,0	0,2	0,8	12,0	0,15 R>0,05
	Q	8,21	0,5	1,3	18,8	8,34	0,6	1,4	17,2	0,49 R>0,05
EGILUVCHANLIK										
Ko'prikcha, Sm	O'	49,3	2,0	6,2	12,3	44,0	1,1	3,8	13,6	3,1 R<0,05
	Q	48,3	1,9	8,8	18,6	44,2	3,8	13,7	29,0	0,8 R>0,05
Engashish, Sm	O'	4,62	1,0	4,0	71,3	5,05	0,9	1,9	41,1	0,6 R>0,05
	Q	6,0	1,2	4,0	49,3	5,8	1,2	2,0	30,1	1,0 R>0,05
Yelka bo'g'imlarini burish, sm	O'	35,9	1,4	3,8	12,3	34,0	1,7	4,9	17,0	1,7 R>0,05
	Q	36,7	1,6	7,3	20,2	29,6	1,8	7,6	28,3	0,9 R>0,05

Olti yoshli bolalar. Tajriba guruhi olti yoshli qizlarida ko'rish xotirasining rivojlanish darajasi shu yoshdagi o'g'il bolalarnikidan yuqoriroq bo'lgan bo'lsa-da, kichikroq yoshdagi bolalarga nisbatan pastroq darajada (11,8 % va 28,4 %) qayd etilgan. Barcha guruhlarda o'g'il va qiz bolalarning eshitish xotirasi rivojlanishini tavsiylovchi miqdoriy ko'rsatkichlar ko'rish xotirasining rivojlanish sur'atlaridan ancha past bo'lgani aniqlandi. Biroq bu holatda ham uch yoshli bolalarda pedagogik tajriba natijasida eshitish xotirasining rivojlanish sur'atlari eng yuqori bo'lgan – o'g'il bolalarda 36,2 %, qizlarda esa 47,7 %.

3–6 yoshli bolalarning jismoniy tayyorgarligi quyidagi jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasini testlash asosida baholandi:

- Kuch:** panja dinamometriyasi, oyoqlarni 10 soniyada ko'tarish, to'p uloqtirish, uzunlikka sakrash.
- Chidamlilik:** 60, 70, 90, 120 metrga yugurish va birinchi to'xtashgacha yugurish.
- Tezkorlik:** turgan joydan 10 metrga yugurish, 10x3 metr mokisimon yugurish, qo'l barmoqlarini bukib-yozish, turgan joyda 10 marta sakrash, 10 marta o'tirib-turish.
- Chaqqonlik:** to'pni nishonga otish, qo'lni yon tomonga yozish, muvozanat mashqlari.
- Egiluvchanlik:** oldinga engashish, "ko'prikcha" mashqi, yelka bo'g'imlarini burish.

Tajriba ma'lumotlariga ko'ra, tajriba guruhi o'g'il va qiz bolalarining xotira ko'rsatkichlari nazorat guruhi-dagilarga nisbatan ancha yuqori ekani ishonchli tarzda aniqlangan. Pedagogik tajriba maktabgacha yoshdagi bolalarda idrokni rivojlantirishning yosh va jinsiy xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi. Uch yoshli o'g'il bolalarda tajriba davrida o'sish kattaligi 31,1 % ni, qizlarda esa 66,2 % ni tashkil etdi. Idrok kattaligining o'sish ko'rsatkichlaridagi yanada ko'proq farqlar besh yoshli bolalarning tajriba va nazorat guruhlarida kuzatildi. Bu yoshda tajriba va nazorat guruhidagi o'g'il bolalarning idrok etish darajasi tajriba davrida 21,6 % ga, qizlarda esa 29,1 % ga o'sgan. Demak, ushbu psixik sifatning o'sish ko'rsatkichi besh yoshda xuddi shu kuzatish davrida to'rt yoshli bolalarnikidan yuqoriroq bo'lgan. Ayniqsa, o'g'il bolalar guruhida ijobiy siljishlar yuz berdi. Olti yoshli o'g'il bolalar tajriba o'tkazilgan sakkiz oy mobaynida (tadqiqotlar may oyida o'tkazilgan) idrokning dastlabki darajasini saqlay olmaganlar va hatto uni bir oz pasaytirganlar ham (tadqiqotlar sentabr oyida o'tka-



zilgan, 0,7 % ga pasaygan). Ayni paytda ularga tengdosh qizlar shu davr mobaynida o'zlarining idrok bo'yicha ko'rsatkichlarini ancha oshirganlar (24,4 %). Shunday qilib, agar 3–6 yoshli bolalarda idrok o'zgarishlarining yillik sur'atlarini tahlil etib chiqsak, quyidagicha xulosaga kelish mumkin: o'g'il bolalarda idrokning rivojlanishida yaqqol namoyon bo'luvchi geteroxon sur'atlar qayd etildi – uning jiddiy o'sishi (3 va 5 yosh) keskin pasayish yillari bilan uyg'unlashadi (4 va 6 yosh).

3–6 yoshli bolalarda egiluvchanlikning rivojlanishi. O'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, har xil jinsli bolalarda yosh ortgani sayin egiluvchanlikning rivojlanish darajasi uncha yaqqol bo'lmagan to'liqsimon egri chiziqdan iborat ekan. Bunda pedagogik tajriba 3–6 yoshli bolalar egiluvchanlik dinamikasining o'zgarish xususiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Nazorat guruhi o'g'il bolalarida egiluvchanlik ko'rsatkichlari “ko'prikcha” mashqini bajarish vaqtida to'rt yoshga kelib yaxshilanadi, besh–olti yoshlarda esa aksincha, asta-sekin pasayib boradi. Xuddi shunday holat uchdan olti yoshgacha bo'lgan qizlarning nazorat guruhida ham kuzatildi. Tajriba guruhida bu mashqda egiluvchanlikning o'zgarish egri chizig'i o'g'il bolalarda ko'zgudagidek aks etdi, ya'ni uch yoshdan to'rt yoshgacha u pasayib bordi, keyingi yillarda esa asta-sekin ko'tarilish yuz berdi. Tajriba guruhi qizlarida chaqqonlik ko'rsatkichi dinamikasi ularning nazorat guruhidagi tengdoshlarida qayd etilgan holatni takrorladi.

Masalan, agar nazorat guruhlarida uch yoshli o'g'il bolalarning gavdasini engashtirish ko'rsatkichlari to'rt va, ayniqsa, besh yoshga qadar oshib borsa, olti yoshda natijalarning biroz pasayishi ro'y beradi. Xuddi shu holat qizlar guruhida ham kuzatiladi. Pedagogik tajribadan so'ng tajriba guruhidagi uch yoshli o'g'il bolalarda gavdani engashtirish vaqtidagi egiluvchanlik ko'rsatkichi yosh o'zgarishlari egri chizig'ining dinamikasida to'rt yoshga borib ancha ortadi, lekin keyin besh va olti yoshga borib pasayadi.

Tajriba guruhi qizlarida pedagogik tajribadan so'ng egiluvchanlikning nazorat guruhiga nisbatan eng yaqqol o'sishi besh yoshda, eng past darajasi esa olti yoshda kuzatiladi. Elka bo'g'imini burish testining bajarilishi ko'rsatkichlari tahlilidan shu ma'lum bo'ldiki, besh va olti yoshda pedagogik tajriba natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarda egiluvchanlikning rivojlanish darajasi ishonchli ravishda o'zgarmas ekan. Uch yoshli o'g'il bolalarda pedagogik tajriba, ikki test ma'lumotlariga ko'ra (“ko'prikcha” va “oldinga engashish”), egiluvchanlikning rivojlanish nuqtai nazaridan, umuman olganda, ijobiy natijalar berdi. Lekin tajriba yakuniga ko'ra faqat oldinga engashish mashqini bajarish vaqtida ishonchli ko'rsatkichlar qo'lga kiritildi. Ayni vaqtda qizlarda faqat “ko'prikcha” mashqiga oid ma'lumotlarga ko'ra ishonchli o'zgarishlar ro'y berdi. Tajriba guruhining to'rt yoshli o'g'il bolalarida pedagogik tajriba tugaganidan so'ng nazorat guruhidagi tengdoshlariga nisbatan barcha testlarni bajarishda ishonchli farqlar qayd etildi.

Xuddi shu yoshdagi qizlarda ikki testdan birortasida ham ishonchli o'zgarishlar yuz bermadi. Besh va olti yoshda bolalar endi uchta test bajara boshladilar. Besh yoshli tajriba guruhi o'g'il bolalari faqat bir holatda – “ko'prikcha” mashqini bajarishda nazorat guruhiga nisbatan o'z natijalarini ishonchli ravishda yaxshiladilar. Shu yoshdagi qizlar esa, garchi ishonchli bo'lmasa-da, barcha uch testda o'zlarining dastlabki natijalarini bir oz pasaytirdilar.

Pedagogik tajribaning ancha yuqori ijobiy natijalari olti yoshli bolalar guruhida qo'lga kiritildi. Buni shundan ko'rish mumkinki, “engashish” kabi eng seraxborot ko'rsatkichni o'g'il bolalar ikkinchi sinovda 3,2 baravar ko'tardilar ($t = 6,3$). Tajriba natijalari bo'yicha qizlar guruhidagi ishonchli ko'rsatkichlar uchta testdan ikkitasida qayd etildi.

XULOSA

Hozirgi zamon bosqichida maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash jarayonini takomillash-tirishning eng muhim ilmiy-nazariy asoslari quyidagilardan iborat. Bugungi kunda Xorazm viloyatining o'ziga xos iqlimiy va ekologik sharoitlari bilan bog'liq holda yuzaga kelgan maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tayyorgarligi hamda psixik rivojlanishining haqiqiy (mavjud) holati bilan jismoniy tarbiyaning rasmiy hujjatlarda belgilangan maqsadlari o'rtasida muayyan ziddiyatlar mavjud. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash tizimida ko'p sonli harakatli o'yinlardan foydalanilayotgan bo'lsa-da, ular yosh va jins xususiyatlarini hisobga olgan holda jismoniy sifatlar hamda psixik jarayonlarni ustuvor rivojlantirish tamoyili asosida tabaqalashtirilmagan holda amalga oshirilmoqda.

Jismoniy sifatlar va psixik jarayonlarning o'zaro ta'siri pedagogik tajriba natijasida ishonchli tarzda tasdiqlandi. Masalan, tajriba guruhi tarkibidagi 3 yoshli o'g'il bolalarda bunday bog'liqlik nazorat guruhiga nisbatan 2,8 marta, qizlarda – 2,1 marta, maktabgacha yoshdagi bolalar kontingenti bo'yicha esa o'rtacha 2,4 marta yuqori ko'rsatkichni namoyon etdi. Mazkur natijalar maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tayyorgarligi va psixik jarayonlarining bir-biriga uzviy bog'liqligini, ularni kompleks tarzda rivojlantirish zarurligini tasdiqlaydi. Shu bois, pedagogik jarayonda harakatli o'yinlar, motorik mashqlar va psixologik rivojlantiruvchi metodlarni uyg'unlashtirish maqsadga muvofiqdir.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-sonli "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori.
2. <https://www.lex.uz/docs>
3. Masharipova M.I. Maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalarning harakat potensialini maqsadli rivojlantirish texnologiyasi. Dis. ... ped. fan. nomzodi. – Toshkent, 2006. – 24 b.
4. Дворкин Л.С., Чернышенко Ю.К. Возрастные особенности развития психических процессов детей 3–6 лет средствами физического воспитания. // Физическая культура. – 1997. – №2. – С. 32–34.
5. Ismoilova G. Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash metodikasi. – "Pedagogik ta'lim" jurnali, 2020-yil, №3, 41–45-betlar.
6. Nuriddinova N. Bolalarda harakat faoliyati orqali psixomotor rivojlanishni ta'minlash usullari. – "Ilm sarchashmalari" jurnali, 2021-yil, №2, 54–58-betlar.
7. Karimova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishida jismoniy mashg'ulotlarning roli. – "Ta'lim va fan yangiliklari" jurnali, 2019-yil, №5, 33–37-betlar.
8. Qodirov Sh. Harakatli o'yinlar orqali bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlash yo'llari. – "Maktabgacha ta'lim" jurnali, 2022-yil, №1, 28–31-betlar.
9. Mamatova N. Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy sifatlarining shakllanishida motorik o'yinlarning ahamiyati. – "Pedagogik mahorat" jurnali, 2023-yil, №4, 46–50-betlar.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.